



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n   i l m i y   j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Ҳуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
---	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126



**Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich,**

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti loyiha ijrochisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori,*



**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich,**

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti loyiha ijrochisi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

# XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar yoritilgan, ishsiz ayollar bandligini ta’minlashning yangi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida o’tkazilgan sotsiologik sorov natijalari keltirilgan hamda xotin-qizlarni ijtimoiy quo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В данной статье описаны реформы, проводимые для защиты прав и законных интересов женщин, повышения их экономической, социальной и политической активности, приведены результаты социологического опроса, проведенного для разработки новых социально-экономических механизмов для трудоустройства безработных женщин. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию системы социальной поддержки женщин.

**Annotation.** This article describes the reforms carried out to protect the rights and legitimate interests of women, increase their economic, social and political activity, presents the results of a sociological survey conducted to develop new socio-economic mechanisms for the employment of unemployed women. Scientific proposals and practical recommendations for improving the system of social support for women have been developed.

**Kalit so‘zlar:** ayollar, ayollar tadbirkorligi, kasb-hunarga o‘qitish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ish bilan bandlik, ishsizlik.

**Ключевые слова:** женщины, женское предпринимательство, профессиональное обучение, социальная поддержка, занятость, безработица.

**Keywords:** women, women’s entrepreneurship, vocational training, social support, employment, unemployment.

**Kirish.** Mamlakatda xotin-qizlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minalash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minalash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlari izchil amalga oshirilmoqda.

Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi.

Mart oyining birinchi haftasida birgina oila va xotin-qizlar masalalariga doir 2 ta Prezident farmoni va 1 ta Prezident qarori qabul qilindi.

Mazkur farmon va qarorlarda oila institutini yanada mustahkamlash va xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmonida oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining 7 ta ustuvor yo‘nalishi, shuningdek, Qo‘mitaning asosiy vazifa hamda faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda ushbu dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi [2].

*Mart oyining  
birinchi haftasida  
birgina oila  
va xotin-qizlar  
masalalariga doir  
2 ta Prezident  
farmoni va 1 ta  
Prezident qarori  
qabul qilindi.*

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar tadbirkorligi borasida yagona va yaxlit “**mahalla–tuman (shahar)–viloyat–respublika**” tizimi yo‘lga qo‘yilgan [3].

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming nafar xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o‘qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratildi. 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta’limga qabul qilindi. Natijada o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab “Ayollar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko‘mak berilgan [4].

**2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming nafar xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o‘qitildi.**

Respublikamizda ayollarning ish bilan bandligini oshirish borasida barcha ijtimoiy va huquqiy sharoitlar yaratilganiga qaramay, bu sohadagi bugungi vaziyat zamонави iqtisodiy rivojlanish sur’atlari talablariga javob bermaydi. Bu vaziyatni yaxshilash uchun gender masalalari doirasidan chiqish zarur, chunki ularning aksari bozor transformatsiyasi sharoitida mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishining umumiy muammolaridan kelib chiqadi, bu muammolar esa aholining, ayniqsa, ayollarning ish bilan bandligi darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.


Olimlarning fikricha, “barcha xotin-qizlarda ham mehnatga munosabatning aniq shakllanmaganligi, yuqori professional malakali mutaxassis-kadr xotin-qizlarning kamligi, bunda oilaviy xo‘jalik yuritishda ularning yetakchilik roli ortib borayotganligi, mos holda ayollarning ijtimoiy foydali mehnatga nisbatan munosabatidagi streotiplarning hanuz saqlanib kelayotganligi, bu boradagi ijtimoiy tasavvurlarda gender tavofutlarning mayjudligi singari sabablar bugungi kunda qishloq ayollarining professional karyera va rahbarlikka da‘vogarligi pastligida namoyon bo‘lmoqda” [5].

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishsiz ayollar bandligini ta’minlashning yangi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida respublikaning 14 ta hududidagi 168 ta mahallalarida 1639 nafar ishsiz xotin-qizlar o‘rtasida, shuningdek, 431 ta ekspertlardan so‘rov o‘tkazildi.

Ayollar ishsizligining asosiy sabablari biror kasbga ega emasligi (20,4%), ish o‘rinlarining (27,8%) va bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumotlarning yo‘qligi (16,0%) hisoblanadi.

Mehnat qilishni xohlovchi ayollar ulushi o‘rtacha – 85,6 foiz, shaharlarda – 84,9 foiz, qishloqlarda – 86,2 foizni tashkil qildi. Ishsiz

ayollarning uchdan bir qismi mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilmagan. Ishga kirish uchun, asosan, Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari (39,8%), mahalla fuqarolar yig‘inlariga (28,6%) murojaat qilgan. Lekin ushbu murojaatlarning bandlik markazlarida – 72,6, mahalliy hokimiyatlarda – 81,1, mahallalarda esa 69,2 foizi qanoatlantirilmagan.



**1-rasm. Hududlarda ayollar bandligini ta’minalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, %**

Mutaxassislar fokus guruh orqali hozirda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni baholaganlar. Ularning xulosasiga ko‘ra, ayollarga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda (47,1%). Hududlar kesimida ushbu jarayonni yuqori baholaganlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi (71,0%), Navoiy (90,0%), Jizzax (62,9%), Qashqadaryo (66,7%), Samarqand (66,7%) viloyatlaridagi respondentlardir.


Keyingi muhim tadbir bu ishsiz ayollarni o‘qitish va qayta tayyorlash kurslari faoliyati tashkil etilganidir (42,0%). Ushbu ma’lumotlar Buxoro (75,0%), Navoiy (80,0%), Farg‘ona (84,4%), Xorazm (56,7%) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (54,8%) nisbatan yuqori. Alovida ta’kidlanishiga qaraganda, o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda (12,5%). Shuningdek, ayollar biznesini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan (37,4%). Ushbu holatda ishsiz ayollarning ko‘pchiligi Navoiy (73,3%), Namangan (51,7%), Farg‘ona (46,9%), Surxondaryo (46,4%) viloyatlari va Toshkent

shahrida (50,0%) yuqori baholaganlar. Ayollar biznesi uchun binolarni nol narxda ijara ga berish amaliyoti qo'llanishini 8,8% respondentlar tasdiqlaganlar. (Navoiy viloyatida – 26,7%, Toshkent viloyatida – 30,6%).

Bundan tashqari, bo'sh ish o'rnlari yarmarkasining hududlarda tashkil etilayotgani ham qayd etilgan (16,0%). Ushbu mexanizm Buxoro (33,3%), Navoiy (50,0%), Qashqadaryo (26,7%), Samarqand (23,3%) viloyatlari va Toshkent shahrida (23,3%) keng qo'llanilmoqda.

Bevosita ishsiz ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning bandligini ta'minlashda quyidagilarga ko'proq e'tibor qaratilishi ta'kidlangan:

– tadbirdorlik faoliyatini boshlash uchun maqsadli imtiyozli kreditlar olishni yanada takomillashtirish (42,1%). Hududlar kesimida nisbatan yuqori javoblar Qoraqalpog'iston Respublikasiga (60,0%), Jizzax (65,9%), Qashqadaryo (60,0%), Namangan (50,7%) viloyatlariga to'g'ri keladi. Ushbu yo'nalishda mikrokreditlashning samarali shakllarini rivojlantirishga e'tibor qaratilishi (17,7%) ko'zda tutilgan (2-rasm).



*2-rasm. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash uchun amalga oshirish kerak bo'lgan chora-tadbirlar, %*

– boshqa kasblarga qayta tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish (41,0%). Ushbu holat ko‘proq Qoraqalpog‘iston Respublikasi (70,7%), Jizzax (60,1%), Namangan (58,0%), Xorazm (56,7%) viloyatlarida zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, internet orqali onlayn ish qidirish bo‘yicha o‘quv treninglar o‘tkazishni tashkil qilish taklif etilgan (7,3%);

– ayollarni ish bilan ta’minlashda mehnat yarmarkalari tashkil qilishni kengaytirish (30,6%) lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa Xorazm (51,0%), Farg‘ona (49,3%), Namangan (39,9%), Navoiy (42,2%) viloyatlarida ushbu tadbiriga katta ahamiyat qaratilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali ayollar uchun bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tarqatish zarurati (10,9%) qayd etilgan;

– hududlarda ayollar biznesini tashkil qilishda binolarni nol qiymatida ijaraga berish (14,8%) va yer uchastkalarini ajratish (10,3%) mexanizmlarini qo‘llashni kengaytirish taklif etilgan;

– ayollar bandligini ta’minlashda, ularning farzandlarini bolalar bog‘chalariga joylashtirishni kengaytirish (15,1%) ko‘rsatilgan. Ushbu tadbir ko‘proq Namangan (31,9%), Sirdaryo (18,4%), Xorazm (18,3%) viloyatlariga to‘g‘ri keladi (3-rasm).



*3-rasm. Ayollar bandligini ta’minlash uchun amalga oshirish kerak bo‘lgan ishlar, % (fokus guruh natijalari)*

Yuqorida ayollarni ish bilan ta'minlash mexanizmlari fokus guruh ma'lumotlarida ham deyarli tasdiqlangan. Jumladan, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratishni soddalashtirish (23,0%), mikrokreditlash shakllarini rivojlantirish (31,8%), ishsiz ayollarni o'qitish xarajatlarini qoplash uchun subsidiyalar ajratish (33,6%), ommaviy axborot vositalari orqali ayollar uchun bo'sh ish o'rinnari to'g'risidagi ma'lumotlarni keng tarqatish (24,6%), ularning farzandlarini bolalar bog'chalariga joylashtirish imkoniyatini kengaytirish (16,9%).

Nisbatan samarali yo'nalish sifatida investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlashda ayollar ko'proq talab qilinadigan sohalarga e'tiborni kuchaytirish (19,3%) va ish joylari yaratilganda ayollar uchun kvotalarni ko'paytirish (18,8%) bo'yicha takliflar qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, ayollarni tadbirkorlik bilan shug'ullanishga jalb qilish va yangi ish joylarini tashkil qilishda bevosita ishsiz ayollar tomonidan taklif etilayotgan mexanizmlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

#### **Taklif va tavsiyalar:**

*Nisbatan samarali yo'nalish sifatida investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlashda ayollar ko'proq talab qilinadigan sohalarga e'tiborni kuchaytirish (19,3%) va ish joylari yaratilganda ayollar uchun kvotalarni ko'paytirish (18,8%) bo'yicha takliflar qayd etilgan.*

- hududlar (viloyat, tuman, shahar) kesimida ishsiz ayollarni ish bilan ta'minlashning maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish. Bunda har bir hududning o'ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyati, ishsiz ayollarning ijtimoiy-demografik guruhlarga taqsimlanishini hisobga olish lozim;

- mahallalar kesimida shakllantirilgan maxsus daftarlardagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tarkibida ishsiz xotin-qizlar bo'lgan kambag'al va ko'p bolali oilalar, ularning yoshini hisobga olgan holda maqsadli o'quv kurslari va ish joylarini tashkil etish;

- o'quv kurslarini tashkil etishda tuman va shaharlarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalariga, yangi talab shakllanayotgan elektron savdo, marketolog va dizaynerlar, moliya, bank, sug'urta tizimidagi menejerlar, hamshiralar, raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga e'tiborni qaratish;

- ayollar uchun bo'sh ish o'rinnari to'g'risidagi elektron ma'lumot bazasini va mobil ilovani yaratish. Qizlar va ayollar uchun internetdan foydalanish va internetda ish topish bo'yicha treninglar tashkil qilish;

- ayollarning raqamli bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga asoslangan innovatsion kasbiy o'qitish va qayta tayyorlashning samarali tizimini tashkil etish;

- ayollar uchun innovatsion, ijtimoiy va raqamli tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;

- bandlikning moslashuvchan, nostandard: nol soatlik mehnat shartnomalari, frilanser, telefon orqali ishslash, xotdesking, onlayn ish yuritish, Flexi-place shakllarini rivojlantirish;

– chekka qishloq joylarida ayollar uchun telekottejlar tashkil qilish (bu ishsiz ayollar uchun ta’lim dasturlarida faol ishtirok etish imkonini beradi);

– ayollarni ish bilan ta’minlashda shaxsiy tomorqani yanada kengaytirish, oilaviy fermerlikni rivojlantirishni muhim yo‘nalishlar qatoriga kiritish. Ayniqsa, issiqxona orqali yil davomida mahsulotlar va ko‘chatlarni ishlab chiqarishda ayollarning o‘rni tobora oshirish;

– shaxsiy tomorqa xo‘jaligida band, uch nafardan ortiq farzandlarni tarbiya qilayotgan ayollarga bandlik maqomini berish mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022 y., 06/22/81/0174-son.*
2. *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.03.2022 y., 06/22/87/0198-son.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatining 2021-yil 24-apreldagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan Parlament so‘rovi natijalari haqida”gi SQ-286-IV-son qarori // <https://lex.uz/docs/5418582>.*
4. *Mirziyoev Sh.M. Xotin-qizlar uchun ulkan imkoniyatlar belgilandi // <https://iiv.uz/oz/news/xotin-qizlar-uchun-ulkan-imkoniyatlar-belgilandi>.*
5. *Karimova V., Saidova Yu., Umarova Sh., Mirahmedova M. O‘zbekistonda gender-menejmentning istiqboli. Monografik tadqiqot. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2011. –74 b.*

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.